

## Phraseological Units In English And Their Equivalents In Uzbekistan

**Uktamova Mokhigul Khamidullo qizi**

Senior lecturer at Fergana State University,

[uktamovamoxigul@gmail.com](mailto:uktamovamoxigul@gmail.com)

**Muhammadov Akmaljon**

Student of the Faculty of Foreign Languages, Fergana State University

### Annotation

This article examines phraseological units in the English language and their equivalents in the Uzbek language. The study analyzes various English phraseological expressions and identifies their corresponding equivalents in Uzbek. It also highlights the challenges that arise in translating phraseological units, particularly the limitations of literal translation, which does not always convey the intended meaning. The article discusses the semantic features of phraseological units, their usage in speech, and their cultural aspects. The results of the research are significant for identifying phraseological correspondences between English and Uzbek and for improving the effectiveness of the translation process.

**Keywords:** phraseological units, idioms, English language, Uzbek language, equivalence, translation problems, semantic meaning, literal translation, cultural features, phraseology.

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari o'rganiladi.. Tadqiqotda ingliz tilidagi turli frazeologik iboralar tahlil qilinib, ularning o'zbek tilidagi mos ma'nodagi ekvivalentlari aniqlanadi. Shuningdek, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar, xususan, so'zma-so'z tarjimaning har doim ham to'g'ri natija bermasligi misollar orqali ko'rsatib beriladi. Maqolada frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, ularning nutqda qo'llanishi hamda madaniy jihatlari ham ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek tillari o'rtasidagi frazeologik mosliklarni aniqlashda hamda tarjima jarayonini yanada samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, idiomalar, ingliz tili, o'zbek tili, ekvivalentlik, tarjima muammolari, semantik ma'no, so'zma-so'z tarjima, madaniy xususiyatlar, frazeologiya

### KIRISH

Til – insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlaydigan eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Har bir til o'zining boy lug'at boyligi, iboralari va frazeologik birliklari bilan ajralib turadi. Frazeologik birliklar tilning eng muhim va qiziqarli qatlamlaridan biri bo'lib, ular xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashini o'zida aks ettiradi. Ayniqsa, ingliz tilida frazeologik birliklar juda keng qo'llanilib, nutqning obrazlilik va ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Frazeologik birliklar ko'pincha ko'chma ma'noga ega bo'lib, ularni so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham to'g'ri natija bermaydi. Shu sababli bunday birliklarni boshqa tilga tarjima qilishda ularning ma'nosini to'g'ri anglash va mos ekvivalentini topish muhim ahamiyatga ega. Frazeologik birliklar tilning muhim qismi bo'lib, ular xalqning madaniyati, urf-odatlar va dunyoqarashini aks ettiradi. Ingliz tilidagi ko'plab frazeologik iboralar o'zbek tilida ham ma'nodosh yoki yaqin ekvivalentlarga ega bo'lib, ular tarjima jarayonida nutqning tabiiyligi va mazmunini saqlab qolishga yordam beradi.

Mazkur maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida uchraydigan muammolar, ularning semantik xususiyatlari hamda nutqda qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning o'xshash va farqli jihatlarni aniqlash hamda ularni tarjima qilishning samarali usullarini ko'rsatib berishdan iborat.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Frazeologiya tilshunoslikning muhim sohalaridan biri bo'lib, u ko'plab tilshunos olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, ularning nutqda qo'llanishi hamda turli tillar o'rtasidagi tarjima muammolari ko'plab ilmiy tadqiqotlarning asosiy mavzularidan biri hisoblanadi. Frazeologiya nazariyasining rivojlanishida bir qator olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega.

Xususan, rus tilshunos olimi V.V. Vinogradov frazeologik birliklarni semantik jihatdan tasniflab, ularni frazeologik birikmalar, frazeologik birliklar va frazeologik qo'shilmalar kabi turlarga ajratgan.<sup>1</sup> Ingliz tilidagi frazeologik birliklarni o'rganishda esa A.V. Kuninning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. U ingliz frazeologiyasining nazariy asoslarini ishlab chiqib, frazeologik birliklarning strukturaviy va semantik xususiyatlarini batafsil tahlil qilgan.<sup>2</sup>

O'zbek tilshunosligida ham frazeologik birliklarni o'rganish muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Sh. Rahmatullayev,<sup>3</sup> A. Hojiyev<sup>4</sup> va boshqa olimlar o'zbek tilidagi frazeologik birliklarning shakllanishi, ularning semantik hamda uslubiy xususiyatlarini o'rganib, ularning til tizimidagi o'rni haqida ilmiy xulosalar berganlar. Ushbu tadqiqotlarda frazeologik birliklarning milliy-madaniy jihatlari va tarjima jarayonida uchraydigan muammolar ham yoritib berilgan.

Mazkur tadqiqotda ingliz tilidagi frazeologik birliklar va ularning o'zbek tilidagi ekvivalentlarini aniqlash hamda tahlil qilish uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida asosan qiyosiy-tahliliy metod, tavsifiy metod va semantik tahlil metodlari qo'llanildi. Qiyosiy-tahliliy metod yordamida ingliz tilidagi frazeologik birliklar o'zbek tilidagi mos ekvivalentlari bilan solishtirildi va ular o'rtasidagi o'xshash hamda farqli jihatlar aniqlandi.

Tavsifiy metod orqali frazeologik birliklarning tuzilishi, ma'nosi va nutqda qo'llanishi tahlil qilindi. Shuningdek, semantik tahlil yordamida frazeologik birliklarning ko'chma ma'nolari va ularning madaniy xususiyatlari o'rganildi. Tadqiqot materiallari sifatida ingliz tilidagi badiiy asarlar, lug'atlar hamda ilmiy manbalardan olingan frazeologik birliklardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar o'rtasidagi ekvivalentlik darajasi aniqlanib, ularning tarjima jarayonidagi xususiyatlari yoritib berildi.

#### TAHLIL

Ingliz tilidagi frazeologik birliklar nutqning obrazlilik va ta'sirchanligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ko'pincha ko'chma ma'noda qo'llanib, so'zma-so'z tarjima qilinganda asl ma'nosini yo'qotishi mumkin. Shu sababli frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida ularning semantik mazmuni va madaniy xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ingliz tilidagi ko'plab frazeologik iboralar o'zbek tilida ham ma'nodosh yoki yaqin ekvivalentlarga ega. Masalan, ingliz tilidagi *"to kill two birds with one stone"* iborasi so'zma-so'z tarjima qilinganda *"bir tosh bilan ikki qushni o'ldirmoq"* degan ma'noni bildiradi. Biroq uning asl ma'nosi bir ish bilan ikki natijaga erishishni anglatadi. O'zbek tilida bu iboraning mos ekvivalenti *"bir o'q bilan ikki quyovni urmoq"* shaklida qo'llanadi. Bu misol frazeologik birliklarning turli tillarda shakli farq qilsa ham, ma'nosi jihatdan o'xshash bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Yana bir misol sifatida ingliz tilidagi *"spill the beans"* iborasini ko'rib chiqish mumkin. Bu ibora so'zma-so'z *"loviya to'kib yubormoq"* degan ma'noni bildiradi, lekin aslida sirni oshkor qilish ma'nosida ishlatiladi. O'zbek tilida bunga yaqin ekvivalent sifatida *"sirni ochib qo'ymoq"* yoki *"og'zidan chiqib ketmoq"* kabi iboralar ishlatiladi.

Shuningdek, ingliz tilidagi *"a piece of cake"* iborasi ham keng qo'llaniladigan frazeologik birliklardan biridir. Bu ibora *"juda oson ish"* degan ma'noni bildiradi. O'zbek tilida esa bunga mos ravishda *"bolaning o'yini"* yoki *"juda oson"* kabi iboralar qo'llanadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar ko'pincha mazmun jihatidan o'xshash bo'lsa-da, ularning tarkibiy tuzilishi va obrazli ifodasi turlicha bo'lishi mumkin. Bu esa har bir tilning milliy-madaniy xususiyatlari bilan bog'liq. Shuning uchun frazeologik birliklarni tarjima qilishda so'zma-so'z tarjimadan ko'ra, ma'nodosh ekvivalentlarni topish

<sup>1</sup> Vinogradov V.V. Русский язык. Грамматическое учение о слове. – Москва: Высшая школа, 1972.

<sup>2</sup> Kunin A.V. Англо-русский фразеологический словарь. – Москва: Русский язык, 1984.

<sup>3</sup> Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1992.

<sup>4</sup> Hojiyev A. O'zbek tilshunosligi asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

muhim hisoblanadi. Bu esa tarjimaning tabiiyligi va mazmunining to'liq yetkazilishiga yordam beradi.

### **MUHOKAMA**

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ham iboralar xalqning turmush tarzi, madaniyati va dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq holda shakllangan. Frazeologik birliklar nutqning obrazlilik, ta'sirchanligi va ifodaliligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ularni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida ma'lum qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin.

Tahlillar natijasida ma'lum bo'ldiki, ayrim ingliz tilidagi frazeologik birliklar o'zbek tilida to'liq ekvivalentga ega. Bunday holatlarda iboraning ma'nosi va obrazli ifodasi deyarli bir xil bo'lib, tarjima jarayoni nisbatan oson kechadi. Biroq ayrim frazeologik birliklar faqat ma'no jihatidan o'xshash bo'lib, ularning shakli va obrazli ifodasi turlicha bo'ladi. Bu holat ikki xalqning madaniyati, tarixiy tajribasi va turmush tarzi bilan bog'liq.

Shuningdek, ayrim ingliz tilidagi frazeologik birliklar o'zbek tilida to'liq ekvivalentga ega bo'lmasligi ham mumkin. Bunday vaziyatlarda tarjimon iboraning ma'nosini izohlash yoki unga yaqin ma'nodagi iborani qo'llash orqali tarjimoni amalga oshiradi. Bu esa tarjimonning til bilimi, madaniy bilimlari va kontekstni to'g'ri anglashiga bog'liq.

Umuman olganda, frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida nafaqat til birliklari, balki ularning madaniy va semantik xususiyatlarini ham hisobga olish zarur. Shundagina tarjima matni tabiiy va tushunarli bo'lib, asl mazmun to'liq saqlanib qoladi. Shu sababli ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish tarjimashunoslik va tilshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar tilning muhim va ajralmas qismi bo'lib, ular xalqning madaniyati, urf-odatlarini hamda dunyoqarashini aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarni o'rganish ushbu tillarning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi ko'plab frazeologik birliklar o'zbek tilida ma'nodosh yoki yaqin ekvivalentlarga ega. Biroq ayrim iboralar shakli va obrazli ifodasi jihatidan farq qiladi. Shu sababli bunday birliklarni tarjima qilish jarayonida so'zma-so'z tarjima qilish har doim ham to'g'ri natija bermaydi. Frazeologik birliklarning mazmunini to'g'ri yetkazish uchun ularning semantik va madaniy xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shuningdek, frazeologik birliklarni qiyosiy o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarjimashunoslik uchun ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon ikki til o'rtasidagi frazeologik mosliklarni aniqlashga va tarjima sifatini yanada oshirishga yordam beradi. Natijada frazeologik birliklardan to'g'ri foydalanish nutqning boyligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 476 b.

Shavkatovna, S. D., Karimovna, I. M., & O'ktamovna, X. M. (2021). Linguocultural features of the symbols. *Elementary Education Online*, 20(4), 2993-2993.

Khusenova, M. U. (2024). Lexical-Semantic Features of Astronomical Terminology in the English Language. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education*, 2(11), 279-282.

Shavkatovna, S. D., & G'ulomovna, Q. M. (2021). Linguocultural Features of Symbol and Metaphor. *International Journal on Integrated Education*, 4(10), 172-176.

Saidov, S. (2024). Linguo-cultural studies and corpus linguistics: interdisciplinarity. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 18.

Saidov, S. (2023). Benefits of extroversion in second language acquisition. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27, 27.

- Saidov, S. (2023). The Application of Corpus Linguistics in Language Learning and Teaching. *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS*, 2(6), 4-8.
- Rakhimovna, R. D. (2024). DEVELOPMENT OF LITERARY PSYCHOLOGISM IN UZBEK LITERATURE. *Conferencea*, 69–72.
- Radjabova, D. (2022). IDENTIFYING AND DESCRIBING ERRORS IN LANGUAGE LEARNING. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 10 (10).
- Dildora, R. (2022). The interpretation of urbanonyms in the novel “jenny gerhardt” by american writer theodore dreiser. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(5), 196-199.
- Xaydarova, L. (2022). THE IMPORTANCE OF THE USAGE OF INTERACTIVE METHODS WHILE DEVELOPING READING SKILLS OF YOUNG LEARNERS. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
- Khaydarova, L. (2023). Effective and modern methods of teaching listening skills. *Scientific progress*, 4(3), 36-42.
- Khaydarova, L. (2022). Teaching English Grammar Through Interactive Methods. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research).
- Olimova, D. Z., & Turaeva, Z. A. (2022). The peculiar complexity of translating uzbek classical poetry into English.
- Khamraeva, G., & Olimova, D. (2017). BENEFITS OF USING ROLE PLAYS IN TEACHING LANGUAGES. *Научная дискуссия: инновации в современном мире*, (4), 97-101.
- Zokirova, N. (2024). THE CONCEPT OF “LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD” IN TRANSLATION. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 48(48).
- Zokirova, N. (2021). TARJIMA DISKURSIDA ADEKVATLIKKA ERISHISHNING PRAGMATIK VA KOGNITIV XUSUSIYATLARI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 8(8).
- Zokirova, N. (2021). Badiiy she'riy tarjimada g'ayrilisoniy jihatlarni saqlashda ekvivalentlik va adekvatlik tamoyillari: Tarjimada ekvivalentlik va adekvatlik. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. Uz)*, 6(6).
- Mehmonova, Y. C. (2025). Terminological Collocations and Their Analysis. *American Journal of Education and Evaluation Studies*, 2(1), 172-179.
- Mehmonova, Y. C. Typology of Collocations in the English and Uzbek Languages.
- FAYZIYEV, B. (2024). JK ROULINGNING “GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH” ASARIDAGI TO‘QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O‘ZBEK TILLARIGA TARJIMASI. *SCIENCEPROBLEMS. UZ Учредители: ООО “Scienceproblems team”*, 3(12/2).
- Bahodir, F. (2023). METAPHORS AND THEIR FEATURES OF TRANSLATION BASED ON THE MATERIAL OF THE WORKS OF JK ROWLING" HARRY POTTER. *UNIVERSAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 1(7), 12-17.
- Valiyeva, N. (2023). The classification of chemical terminology in modern English and Uzbek linguistics. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 35, 35.
- Salikhova, N. N. (2022). Interjections in the Contexts of Uzbek and English Languages. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
- Nurullayevna, S. N. (2025, June). SEMANTIC EXTENSION AND FIGURATIVE USE OF MEDICAL TERMS (ON THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES). In *CONFERENCE OF MODERN SCIENCE & PEDAGOGY (Vol. 1, No. 3, pp. 142-144)*.
- Nurullayevna, S. N., & Nuriddinova, M. Z. (2023). THE HISTORY OF SONNET AND ITS TYPES. *SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH*, 269.
- Hojiyev, A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1981. – 256 b.
- Safarov, Sh. Lingvokulturologiya asoslari. – Toshkent: Fan, 2008. – 198 b.
- Yo‘ldoshev, B. Frazzeologiya va frazeografiya masalalari. – Samarqand, 2005. – 132 b.